



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYILLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASSTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSİYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLİYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLİYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadriiddin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY OMILLARI VA HORIIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARNING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
Xo'jamov Akbar Bahriddinovich	
KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI	118
Djumayev Askar Xaydarovich	
SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI	123
Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
Норкулов Хабибулло	
Абдурасулова Шахзода	
Бахриддинов Дилшодбек	
NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147
Джуманов А.А.	
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157
Masharipova Durdona Ulug'bekovna	
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ	164
Джуманов А.А.	
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI	174
Raxmanov Furqat Temirovich	
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179
Ибрагимов Гайратжон Артикович	
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich	
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192
Shakarov Zafar Gafforovich	



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	210
Курбанова Дилфуза Махсудовна	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	217
Karimova Feruza Xamidullayevna	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich	
FUQAROLAR MUHOJAATLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	226
Inomov Daniyar Valijonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
Niyozov Zuhur Davronovich Xolmurotov Sardor Haydaraliyev Avaz	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJIRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	238
Tolibova Aziza To'liqin qizi	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	247
Masharipova Sevara	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	256
Iskandar Yunusov	

BALIQCHILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI



Iskandar Yunusov

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti dotsenti, PhD.

E-mail: iskandaryunusov80@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-0864-4348>

Annotatsiya. Mazkur maqolada baliqchilik tarmog'ini intensiv rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari, iqtisodiy mazmuni hamda o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etilgan. Intensivlashtirish tushunchasining mohiyati ochib berilgan holda, xorijiy va mahalliy olimlarning ushbu masalaga oid ilmiy qarashlari tahlil qilingan. Tadqiqotda intensiv baliqchilikning asosiy yo'nalishlari sifatida yuqori mahsuldorlikka erishish, resurslardan samarali foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ozuqa ta'minotini takomillashtirish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, yopiq suv aylanish tizimlari, raqamli boshqaruv, bioxavfsizlik va yuqori samarali akvakultura texnologiyalarining ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: intensivlashtirish, intensiv baliqchilik, resurs tejamkorligi, yopiq suv aylanish tizimi, mahsuldorlik, bioxavfsizlik, ekologik barqarorlik, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В данной статье исследованы научно-теоретические основы, экономическое содержание и специфические особенности интенсивного развития рыбоводческой отрасли. Раскрыта сущность понятия интенсификации, а также проанализированы научные взгляды зарубежных и отечественных ученых по данной проблеме. В исследовании в качестве основных направлений интенсивного рыбоводства рассмотрены повышение продуктивности, эффективное использование ресурсов, внедрение современных технологий, совершенствование кормовой базы и обеспечение экологической устойчивости. Кроме того, обоснована значимость систем замкнутого водоснабжения, цифрового управления, биобезопасности и высокоэффективных технологий аквакультуры.

Ключевые слова: интенсификация, интенсивное рыбоводство, ресурсосбережение, система замкнутого водоснабжения, продуктивность, биобезопасность, экологическая устойчивость, цифровые технологии, экономическая эффективность.

Abstract. This article examines the scientific and theoretical foundations, economic content, and specific characteristics of the intensive development of the fisheries sector. The essence of the concept of intensification is revealed, and the scientific views of foreign and domestic scholars on this issue are analyzed. The study highlights the main directions of intensive fish farming, including increasing productivity, efficient use of resources, implementation of modern technologies, improvement of feed supply systems, and ensuring environmental sustainability. In addition, the importance of recirculating aquaculture systems, digital management, biosecurity measures, and highly efficient aquaculture technologies is substantiated.

Keywords: intensification, intensive fish farming, resource efficiency, recirculating aquaculture system (RAS), productivity, biosecurity, environmental sustainability, digital technologies, economic efficiency.

KIRISH

Intensivlashtirish — bu har qanday soha yoki loyihani yanada samaraliroq vositalar va optimallashtirilgan jarayonlardan foydalanish orqali rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Shuningdek, intensivlashtirish maqsadlari muayyan vaqt oralig'ida yoki cheklangan resurslardan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish yoki



xizmatlar ko'rsatish hajmini oshirishni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni, iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish yo'llarini, biznesning tezkorligi va raqobatbardoshligini oshirishni, resurs sarfini kamaytirish hamda atrof-muhitga salbiy ta'sirni minimallashtirishni o'z ichiga oladi [17].

Shuningdek, intensivlashtirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish, intensiv rivojlantirish masalalarida turli iqtisodchi olimlar va mutaxassislar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida turlicha ilmiy qarashlarini bayon qilishgan. Jumladan:

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan biri V.A. Andreevning fikricha [18], intensivlashtirish — bu yuqori samarali texnologiyalar, mehnat vositalari va obyektlari hamda uni tashkil etishning yanada ilg'or shakllardan foydalanishga asoslangan ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish jarayoni hisoblanadi.

Iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarishning ekstensiv va intensiv shakllarida ifodalangan intensivlashtirish muammosini hal qilishning ikkita usuli mavjud. Shu bilan birga, ko'payishning ekstensiv va intensiv yo'nalishlari o'rtasida bir qator farqli jihatlar mavjudligini ko'rish mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Intensivlash omillarini o'rganishga ko'plab iqtisodchilar katta e'tibor qaratmoqda. Jumladan, I.A. Minakov o'z asarlarida omillarning uch guruhini ajratib ko'rsatadi [12]: birinchisi — bu guruhga ishlab chiqarishning o'sishi va barqarorligini belgilovchi omillar kiradi (o'g'itlardan foydalanish, urug'chilikning agrotexnik usullarini takomillashtirish, meliorativ tadbirlar va boshqalar); ikkinchi guruh ishlab chiqarishda mehnat sarfini kamaytirishni ta'minlovchi omillarni (mexanizatsiyalash, tashkil etish va mehnatga haq to'lash shakllarini takomillashtirish) birlashtiradi; uchinchi guruh omillari qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi (ixtisoslashtirish, konsentratsiya va kooperatsiya, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish).

L.I. Chujinov, I.Ya. Petrenkolar intensivlashning asosiy omillarini quyidagicha guruhlanishini ajratib ko'rsatgan [13]: iqtisodiy munosabatlarni tubdan qayta qurish; yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlab qolish, yig'im-terim va undan keyingi saqlash hamda qayta ishlash jarayonida ularning yo'qotilishini kamaytirish; qishloq xo'jaligi sanoatini kimyolashtirish; melioratsiya; intensiv resurs tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqish.

A.I. Barbashin [14] "...intensivlashtirish jarayonining bevosita iqtisodiy samaradorligi qo'shimcha kapital qo'yilmalar va joriy ishlab chiqarish xarajatlari samaradorligi bilan tavsiflanadi, bu ishlab chiqarish hajmining o'sishi va investitsiyalar ko'payishi nisbati bilan ifodalanadi", deb hisoblaydi. Bunda qo'shimcha investitsiyalar samaradorligini hisoblash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi: qo'shimcha xarajatlarning samaradorlik koeffitsiyenti; qo'shimcha kapital qo'yilmalarning samaradorlik koeffitsiyenti; qo'shimcha kapital qo'yilmalarni qoplash muddati; qo'shimcha ishlab chiqarish xarajatlarning rentabellik darajasi.

I. Kulikovning ta'kidlashicha [15], "Biz intensivlashtirishning asosiy xo'jalik ichidagi zahiralarni texnologiyalarni va butun tashkiliy-iqtisodiy tizimni takomillashtirishda ko'ramiz, bu esa mavjud moddiy-texnika va mehnat resurslaridan keng foydalanishni, tejamkorlikni va ularga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni ta'minlaydi".

Intensivlashtirishning iqtisodiy samaradorligini aniqlashga tizimli yondashuv keng tarqalgan. Mazkur masalada M.F. Kovaleva "...metodik jihatdan intensivlashtirish ko'rsatkichlari tizimi umumiy samaradorlikni ifodalashi kerak", deb hisoblaydi [16].

Shuningdek, rossiyalik iqtisodchi olimlardan A.L. Nikiforov-Nikishin, I.A. Glebova, M.V. Shatoxinlar o'z ilmiy-tadqiqot ishlarida intensivlashtirish, intensiv baliqchilik, baliq yetishtirish hajmini oshirish masalalariga e'tiborni qaratgan holda akvakultura atamasiga quyidagicha ta'rif berishgan [19], ya'ni akvakultura — materik suv havzalarida, dengiz va okeanlarda, maxsus yaratilgan sun'iy plantatsiyalarda suvda yashovchi organizmlarni (baliq, qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar, suv o'tlari) yetishtirish va ko'paytirishni o'z ichiga olgan iqtisodiyot tarmog'i hisoblanadi. Akvakulturaning asosiy yo'nalishi baliq yetishtirish, ya'ni tijorat maqsadlarida baliq yetishtirish bo'lib, bu yuqori sifatli va arzon oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Qishloq xo'jaligini intensivlashtirish, energetika, biznes sohalarida intensivlashtirish bo'lgani kabi, intensiv baliqchilik ham iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Intensiv baliqchilik (akvakulturaning asosiy usuli) bo'yicha so'z ketganda mahalliy iqtisodchi olimlarimiz ham keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib bormoqdalar. Jumladan:

Baliq ko'paytirish va intensiv akvakulturaning tashkil qilish masalalari bo'yicha mutaxassis I. Xalilovning ma'lumot berishicha [3], ... intensiv akvakultura — bu baliq va boshqa jonzo'tlar kabi suv organizmlarini tabiiy sharoitda yoki sun'iy havzalarda ko'paytirish va parvarish qilishdir. Baliqlarning rivojlanishi beriladigan ozuqa hisobidan to'la ta'minlanadi. Hozirgi vaqtda hovuz xo'jaliklari o'rtacha 0,1 dan 0,2 kg/m³ gacha baliq yetishtirmoqda. Biroq, mahsuldorligi 20–40 kg/m³ ga teng muqobil texnologiyalar ham mavjud. Aholi uchun



balıq taqchilligining asosiy sababi daryolarni ortiqcha tartibga solish – baliqlarning tabiiy ko'payish biologik sikliga zid hisoblanadi. Berk suv ta'minoti qurilmalari (BSQ) misolida intensiv akvakulturaning afzalliklari va foydasi quyidagilardan iborat ekanligi, ya'ni baliq ovlanişi va tabiiy ko'payishning tamoman yo'q bo'lib ketishini kamaytiradi; mahsuldorligi oddiy baliqchilik xo'jaligida baliq yetishtirish mahsuldorligidan 200 barobar yuqoriligi; baliqning tez yetilishi; suv va yerdan oqilona foydalanish; yuqori rentabellik, 2–4 ishchi kuchining yetarliligi; mavsumiylikni mustasno qilganda yil bo'yi baliq ovlash imkoniyati mavjudligi va h.k. [20].

Ch. Murodov, D.R. Shoximardonovlarning ilmiy maqolasida ta'kidlaganidek [21], baliqchilik tarmog'i barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun, avvalambor, mintaqalarning baliq yetishtirish imkoniyatlaridan samarali foydalanish zarurati tug'iladi. Bunday sharoitda turli mulkchilikka asoslangan baliqchilik xo'jaliklarini modernizatsiya qilish asosida baliq mahsulotlari yetishtirishning texnologik, tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlarini takomillashtirish talab etiladi. Buning uchun, avvalambor, baliq yetishtiruvchi xo'jaliklarni mintaqalarning mavjud salohiyatidan kelib chiqqan holda joylashtirishga keng e'tibor qaratilmog'i lozim.

Baliqlarni intensiv ko'paytirishdan asosiy maqsad, aholini arzon va sifatli ozuqa mahsulotlari bilan ta'minlash ... baliqning tez ko'payadigan zotlarini ko'paytirish maqsadga muvofiq (X.U. Bekchanov, O.I. Egamberganov, G.Q. Komiljanova, 2021) [1].

A. Kaliknazarovanning fikricha [2], baliq mahsulotlarini ishlab chiqarishda yangi texnologiyalar ishlab chiqishni boshlash va baliq mahsulotlarini ko'paytirish, boshqa tomondan, madaniy baliq turlarini kengaytirish kerak va bunga misol sifatida afrika laqqasi afzalliklarini keltirib o'tgan.

Mamlakatimiz sharoitida baliq yetishtirishning istiqbolli yo'nalishlari borasida o'zlarining tadqiqotlari jarayonida B.G. Komilov va I.I. Xalilovlar ... hozirgi paytda yer va suv resurslarini tejash va ulardan kompleks foydalanish texnologiyalarini joriy etish natijasida intensiv baliqchilik suv hajmi birligidan ekstensiv yoki yarim intensivga qaraganda minglab marta ko'proq mahsulot berishini, shuningdek, respublikada yangi baliq havzalarini yaratish uchun suv va yer resurslari tanqisligi sharoitida mavjud ekstensiv va intensiv xo'jaliklarga qo'shimcha ravishda intensiv akvakulturaning o'zlashtirish zarurligini ta'kidlashgan [3].

Baliqchilik ilmiy-tadqiqot instituti olimlari N.T. Temirova, M.S. Tojiboyevlar kichik havzalarda venger karp baliqlarini yetishtirishda suvdan kompleks foydalanish asosida tabiiy ozuqa bazasini ko'paytirish hisobiga mamlakatda baliq yetishtirishni sezilarli darajada oshirish imkonini beradigan barqaror biotexnologiyalar majmuasini ishlab chiqish, baliq yetishtirishni rivojlantirish uchun asos yaratish, ko'p tarmoqli baliqchilik sohasi va uni mahallilashtirish masalalarini ilgari suradi [4].

B.G. Kamilovning fikricha, baliqchilik tarmog'ini rivojlantirish yo'nalishlarini tanlashda intensiv akvakulturaga katta e'tiborni qaratish kerakligini ta'kidlagan. Tibbiyot me'yorlariga ko'ra, dunyoda 16,6 kg gacha va respublikamizda 12 kg baliq iste'mol qilinishi me'yori inobatga olingan holda mamlakatda kelajakda baliq yetishtirishning intensiv usullarini keng qo'llash maqsadga muvofiq va bu yuqori samara beradi. Intensiv tizim deganda – baliq sun'iy yuqori unumdorlikka ega omuxta yem hisobiga yetishtiriladi. Intensiv tizimda baliq hosildorligi 40–200 kg/m³ va undan yuqori bo'lishi mumkin. Tannarx oshib ketadi, lekin baliqchilik xo'jaligi mahsuldorlik yuqori bo'lganligi hisobiga eng yuqori foyda oladi [5].

U.X. Beglayevning fikricha, bugungi kun baliqchiligida baliqlarning nasliy xususiyatlari, yetishtirish, oziqlantirish nazariyasi o'zgarmaganligini ko'rish mumkin. Hozirgi kunga qadar baliqchilikni rivojlantirishda ko'zlangan maqsadga erishish uchun tashqi omillarni chuqur o'rganish asosiy omil bo'lib kelmoqda. Baliqchilik – bu qishloq xo'jaligining suv havzalarida baliq zaxirasini ko'paytirish va sifatini yaxshilash bilan shug'ullanuvchi sohasi bo'lib, baliq o'stirish tadbirlari, baliqni sun'iy usulda ko'paytirish va uni yangi sharoitga o'rgatish, yangi zot baliqlar yetishtirish, voyaga yetgan baliqlarni ovlash, baliq boqish va biomahsulot ishlab chiqib, yuqori samaraga erishishdir [6].

A. Aitimbetovning tadqiqotlariga ko'ra, ...intensivlashtirish darajasi parvarishlanayotgan obyektga (iliq suv baliqlari, sovuq suv baliqlari), joylashgan yeriga, xo'jalik yuritish tizimiga (ekstensiv, yarim intensiv, intensiv) bog'liq. Baliqlarni yaylov texnologiyalari (ko'l tovar baliqchiligi, ayrim hovuz xo'jaliklari va b.) asosida parvarishlash ekstensiv yo'l, maxsus ozuqalar va moslamalar (industrial-iliq suvli xo'jaliklar) yordamida amalga oshirish esa intensiv yo'l hisoblanadi [7].


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Aytish mumkinki, olimlarning tadqiqotlarini umumlashtirgan holda, intensiv baliqchilik rivojlanishining ilmiy-nazariy jihatdan asosiy ustuvor yo'nalishlarini quyidagicha ifodalash mumkin, ya'ni biologik samaradorlik: genetik seleksiya va tez o'suvchi turlarni joriy etish; texnologik mustaqillik nuqtai nazaridan yopiq suv aylanish tizimlari (YoSAT)da mahsuldorlikning yuqoriligi; yuqori energiyali va ekologik xavfsiz ozuqalarning baliqning ozuqa ratsionida muhimligi; ekologik mas'uliyat: chiqindisiz ishlab chiqarish va suvni tejashning ahamiyati baholandi.



Tahlil va natijalar

Baliqchilik tarmog'ini intensiv rivojlantirish – bu shunchaki mahsulot hajmini oshirish emas, balki biologik jarayonlarni texnologik boshqarish bosqichiga o'tish demakdir. Bu yo'nalishning o'ziga xos xususiyatlari uni an'anaviy (ekstensiv) baliqchilikdan keskin ajratib turadi (1-rasm).



1-rasm. Intensiv baliqchilikning o'ziga xos jihatlari¹

Intensiv usulning eng asosiy belgisi – kichik hajmdagi suvda maksimal miqdorda baliq yetishtirishdir. An'anaviy hovuzlarda 1 gektardan 2–3 tonna hosil olinsa, intensiv tizimlarda (masalan, basseyn yoki qafaslarda) bu ko'rsatkich 10–20 barobar yuqori bo'lishi mumkin. Mahsulдорlikning oshishi baliqlarning o'zaro zichligi (kg/m^3) bilan belgilanadi. Masalan, Afrika laqqasi uchun bu ko'rsatkich 150–250 kg/m^3 gacha yetishi mumkin.

Zamonaviy intensiv baliqchilik ko'pincha Yopiq suv aylanish tizimlari (YoSAT) asosiga quriladi. Suv doimiy ravishda filtrlanadi va qayta foydalaniladi. Bu suv sarfini 90–95 % gacha kamaytiradi. Suv harorati, kislorod miqdori (O_2), ishqoriylik (pH) va ammiak darajasi sun'iy ravishda ideal holatda saqlanadi. Bu baliqning qishda ham, yozda ham bir xil sur'atda o'sishini ta'minlaydi.

Intensiv rivojlanishda tabiiy ozuqa (plankton)ning roli deyarli yo'qoladi. Baliqlar 100 % sun'iy, yuqori proteinli va vitaminlarga boy omuxta yemlar bilan boqiladi. Ozuqaning go'shtga aylanish koeffitsiyenti pasaytiriladi, ya'ni 1–1,2 kg yem sarflab, 1 kg baliq vazni olishga erishiladi.

Har qanday baliq ham intensiv usulda boqishga mos kelavermaydi. Bunda asosan quyidagi xususiyatlarga ega turlar tanlanadi, ya'ni tez o'sadigan, qisqa muddatda (3–6 oy) tovar vazniga yetish imkoniyatiga ega bo'lgan, yuqori zichlikdagi stressga va kasalliklarga chidamli turlar. Masalan, Afrika laqqasi, Tilapiya, Forel, Osetr bularga misol bo'lishi mumkin.

Raqamli nazorat va avtomatlashtirish yo'nalishida intensiv baliqchilikning eng yangi xususiyati – bu Smart Aquaculture (Aqlli baliqchilik), ya'ni suvdagi o'zgarishlarni onlayn rejimda smartfon orqali kuzatish hamda ozuqani belgilangan vaqtda va aniq dozada berishdir, bu esa ozuqa isrofini kamaytiradi.

Bioxavfsizlik va veterinariya-sanitariya monitoringi, ya'ni intensiv tizimlarda baliqlarning o'ta yuqori zichlikda saqlanishi ($100\text{--}200 \text{ kg/m}^3$) muhitning patogen mikroorganizmlarga sezuvchanligini oshiradi. Agar bioxavfsizlik ta'minlanmasa, yuqori zichlik iqtisodiy foyda emas, balki katta zarar keltirishi mumkin. Shu sababli zamonaviy olimlar intensivlikning asosiy ustuni sifatida aynan veterinariya nazoratini ko'rsatadilar. Umuman olganda, tarmoqning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, baliqchilik tarmog'ini intensiv rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik va ekologik barqarorlikning bir nuqtada kesishishidir.

¹ Manba: Muallifning ilmiy-tadqiqotlari asosida tuzilgan.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, baliqchilik tarmog'ini intensiv rivojlantirish zamonaviy iqtisodiyot sharoitida sohaning raqobatbardoshligi, iqtisodiy samaradorligi va barqarorligini ta'minlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Intensivlashtirishning nazariy asoslari bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlarini tahlil qilish natijasida mazkur jarayonning asosiy mazmuni cheklangan yer va suv resurslaridan samarali foydalanish orqali yuqori hajmda mahsulot ishlab chiqarishga erishishdan iborat ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari intensiv baliqchilikning ustuvor jihatlari sifatida yuqori mahsulodlik, resurs tejamlorligi, texnologik mustaqillik, raqamli boshqaruv va ekologik barqarorlikni ta'minlash omillarini namoyon qildi. Xususan, yopiq suv aylanish tizimlari (YoSAT), avtomatlashtirilgan monitoring vositalari, yuqori samarali omuxta yemlar va bioxavfsizlik choralari baliq yetishtirish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, intensiv baliqchilikni rivojlantirish nafaqat mahsulot hajmini ko'paytirish, balki aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, import o'rnini bosish, eksport salohiyatini oshirish hamda suv resurslaridan oqilona foydalanish kabi strategik vazifalarni hal etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, suv resurslari cheklangan sharoitda intensiv akvakultura texnologiyalarini keng joriy etish tarmoqni rivojlantirishning eng maqbul yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, baliqchilik tarmog'ini intensiv rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari biologik samaradorlik, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy manfaatdorlik va ekologik mas'uliyat tamoyillarining o'zaro uyg'unligiga tayanadi. Shu bois kelgusida sohada intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, ilmiy innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish tarmoqning barqaror o'sishi hamda yuqori iqtisodiy natijalarga erishishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бекчанов Х.У., Эгамбергенов О.И., Комилжанова Г.Қ. Урганч Хоразм воҳаси табиий ва сунъий сув ҳавзаларида балиқ етиштиришнинг назарий асослари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал. – 2021. – №4 (74). – Б. 12–16. – URL: <http://mamun.uz/uz/page/56>
2. Калыкназарова А. Республикамизда балиқчилик соҳасида Африка лаққа балиғини етиштириш // Agro ilm – O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi. – 2020. – Maxsus son. – Б. 77–78.
3. Камилов Б.К., Халилов И.И. Ёпиқ сув таъминоти курилмалари Ўзбекистон шароитида балиқ етиштиришнинг истиқболли тизими сифатида. – Т.: Baktria press, 2017. – Б. 6–7.
4. Темирова Н.Т., Тожибоев М.С. Кичик ҳавзаларда венгер карп балиқларини етиштириш истиқболлари // Агроботехнология ва ветеринария тиббиёти илмий журнали. – 2022. – Maxsus son. – Б. 769–772. – URL: <https://www.researchgate.net/publication/366634739>
5. Камилов Б.Г. Технологии интенсивной аквакультуры и их перспективы в Узбекистане [Презентация]. – 2011.
6. Беглаев У.Х. Балиқчилик хўжаликларини барқарор ривожлантириш ва бошқариш механизмларини такомиллаштириш (Қашқадарё мисолида): PhD дисс. – Тошкент, 2021. – Б. 3.
7. Аитимбетов А. Балиқчилик тармоғи самарадорлигини оширишнинг ташкилий-иқтисодий асосларини такомиллаштириш: PhD дисс. – Т., 2023. – 146 б.
8. Козлов В.И., Никифоров-Никишин А.Л., Бородин А.Л. Аквакультура: учебник. – М.: КолосС, 2006. – 444 с. – ISBN 5-9532-0358-6.
9. Камилов Б.Г. Fisheries and aquaculture in Uzbekistan // FAO report. – URL: <https://www.fao.org/3/i1101e/i1101e.pdf>
10. Tacon A.G.J., Metian M. Global overview on the use of fish meal and fish oil in industrially compounded aquafeeds // Aquaculture. – 2008. – DOI: <https://doi.org/10.1016/j.aquaculture.2008.08.015>
11. Boyd C.E., McNevin A.A. Aquaculture, Resource Use, and the Environment. – Wiley-Blackwell. – URL: <https://www.wiley.com/en-us/Aquaculture%2C+Resource+Use%2C+and+the+Environment-p-9781118866160>
12. Минаков И.А. (ред.) Экономика сельского хозяйства. – М.: Колос, 2000. – 328 с.
13. Петренко И.Я., Чужинев П.И. Экономика сельскохозяйственного производства. – Алма-Ата: Кайнар, 1992. – 560 с.
14. Барбашин А.И. Экономика сельского хозяйства: курс лекций. – Курск: КГСХА, 2002. – 278 с.
15. Куликов И. На основе интенсификации // Экономика сельского хозяйства России. – 2001. – №1. – С. 8.
16. Ковалева М.Ф. К интенсификации сельскохозяйственного производства. – М., 1968.
17. Интенсификация сельского хозяйства // Banki.ru. – URL: <https://www.banki.ru/wikibank/intensifikatsiya>
18. Вестник экономико-финансовый (2004). – URL: [http://www.unn.ru/pages/issues/vestnik/99990193_West_econ_finans_2004_2\(6\)/75.pdf](http://www.unn.ru/pages/issues/vestnik/99990193_West_econ_finans_2004_2(6)/75.pdf)



19. Аквакультура: состояние и значение отрасли для экономики России // Cyberleninka. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/akvakultura-sostoyanie-i-znachenie-otrasli-dlya-ekonomiki-rossii>
20. UNDP Uzbekistan report. – URL: https://www.undp.org/sites/g/files/zskgke326/files/migration/uz/un_uzb_catalogue_GEF_SGP_uzb.pdf
21. TIIAME articles. – URL: <https://staff.tiame.uz/storage/users/112/articles/Au5ttKf508QDEbPRfL6u2wrTY8NyLx2RFYsbdYO1.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>